

O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNING O'RNI (6-sinf misolida)

Ziyodulloyeva Dinora Alijon qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti
ziyodullayevadinora@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolda kompetensiya tushunchasining ta'lim mazmuniga tatbiq etilishi, yangicha yondashuv, ta'lim tizimini rivojlantirish masalasi, hozirgi zamon talabiga monand tarzda endilikda o'quvchilarga faqatgina ilmiy-nazariy bilimlar berishda 6-sinf o'quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish, ularni mustaqil mushohada eta oladigan, egallagan bilimlarini kundalik hayotga ham ongli ravishda tatbiq qila olishi haqida ilmiy-nazariy fik-mulohaza bildirilgan.

Kalit so'zlar. Kompetensiya, yangicha yondashuv, ta'lim tizimini rivojlantirish, ilmiy-nazariy bilimlar, ta'lim tizimini takomillashtirish, sun'iy intellekt, nutqiy kompetensiyalar.

ÖĞRENCİ KONUŞMASININ GELİŞİMİNDE KONUŞMA YETERLİLİKLERİNİN ROLÜ (6. Sınıf örneği)

Ziyodullayeva Dinora Alijon kızı,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi

Özet. Bu makalede, yeterlilik kavramının eğitim içeriğine uygulanması, yeni bir yaklaşım, eğitim sisteminin çağın gereklerine uygun olarak geliştirilmesi meselesi, 6. sınıf öğrencilerinin dünya görüşlerini bağımsız olarak gözlemleyebilen, edindikleri bilgileri bilinçli olarak günlük hayata uygulayabilen dünya görüşlerinin genişletilmesi konusunda bilimsel-teorik bir görüş ifade edilmektedir.

Anahtar kelimeler. Yeterlilik, yeni yaklaşım, eğitim sisteminin gelişimi, bilimsel ve teorik bilgi, eğitim sisteminin iyileştirilmesi, yapay zeka, konuşma becerileri.

РОЛЬ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧЕНИКА (На примере 6 класса)

Зиядуллоева Динора Алиджон кизи,
магистрантка Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В данной статье выражено применение понятия компетентности к содержанию образования, новый подход, вопрос развития образовательной системы, научно-теоретическое мнение о расширении мировоззрения шестиклассников, которые могут самостоятельно наблюдать за ними, и осознанно применять полученные знания в повседневной жизни.

Ключевые слова. Компетентность, новый подход, развитие образовательной системы, научно-теоретические знания, совершенствование системы образования, искусственный интеллект, речевые компетенции.

THE ROLE OF SPEECH COMPETENCE IN THE DEVELOPMENT OF A STUDENT'S SPEECH (BASED ON THE EXAMPLE OF 6TH GRADE)

Ziyadulloeva Dinora Alijon kizi,

Master's student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Abstract. *This article expresses the application of the concept of competence to the content of education, a new approach, the issue of development of the educational system, a scientific and theoretical opinion on expanding the worldview of sixth-graders who can independently observe them and consciously apply the acquired knowledge in everyday life.*

Keywords. *Competence, new approach, development of the educational system, scientific and theoretical knowledge, improvement of the education system, artificial intelligence, speech competencies.*

Har qaysi mamlakatda olib boriladigan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida, avvalambor, ta'lim tizimi va turlarini yanada takomillashtirish eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Shu nuqtai nazardan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning: "Agar mendan sizni nima qiynaydi, deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'limi va tarbiyasi deb javob beraman", deya aytgan e'tiroflari, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot zamirida o'sib kelayotgan yosh avlodning kelajagi, mukammal bilim sohiblari bo'lib kamol topishlari va yorqin istiqboli masalasi yotganligini ko'rsatadi [1, 12 b.]. Butun dunyo raqamlashayotgan va sun'iy intellekt hayotimizga faol kirib kelayotgan bir paytda shaxslararo muloqot, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi dolzarb muammoga aylanib bormoqda. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ularning ona tili va boshqa fanlardan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashiga yordam beradi.

O'zbek olimlari N.Husanov, K.Qosimova, S.Matjonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldasheva, L.R.Raupova, Sh.Yusupova, M.Qodirov, H.Ne'matov, B.Mengliev, B.To'xliyev, M.Shamsiyeva kabi ona tili va adabiy ta'lim metodist olimlarining ishlarida nutqiy kompetentlikni ta'limda nuqtai nazardan yanada kengroq va sinchiklab o'rganilgan.

Ona tili va adabiy ta'lim imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o'rganib chiqilgan. Sh.Bektoshev, I.Davronov, G.Muhammadjanova, D.Toshxo'jaeva, I.Toshev, F.Umarova, N.Yuldasheva, D.Yo'ldashev, S.Ibrohimov, X.Qurbonova, G.Qurbonova, M.Qoraxo'jaeva, T.G'aniev, M.R.Hazratqulov, M.Rixsievalar tomonidan tilning fonetik, orfografik, leksik hamda nutqning rivojlanishida ona tili ta'lim mazmunining kompetentlik, metodik yondashuviga oid tadqiqotlar olib borilgan. Bunda so'z bilan og'zaki verbal, noverbal ta'sir o'tkazish o'qituvchidan pedagogik qobiliyat texnikasini, ijodkorlikni va mahoratni talab qiladi.

Kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qilish demakdir. Namunalarga o'xshash harakatlarni ko'zda tutadigan "bilim, ko'nikma va malakalardan farqli o'laroq, nutqiy kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi.

Nutqiy kompetentlik – o'quvchilarga ta'limda bilimlarni amaliyotda qo'llay olishda samarali natija beradi. Talabalarni nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'lim matndagi holat va xususiyatlarini, muloqot asosida amalga oshirishi, matn tahliliga ko'proq o'qituvchi tomonidan undalishi, talabalarni individual va jamoaviy o'qitish, nutqiy kompetensiyani metodik o'rganish asosida ta'lim- tarbiya faoliyatning yangi usullarini egallay olishi hamda nutqdagi kreativ, tanqidiy fikrlashga e'tiborni qaratish muhim ahamiyatga ega.

Kommunikativ kompetensiya atamasi 1972-yilda birinchi marta Hymes tomonidan qo'llanib, uni turli kommunikativ vaziyatlarda ushbu kompetensiyadan foydalanish qobiliyati bilan birga zarur grammatik kompetensiya sifatida belgilangan. Hymes 1970-yillarning boshida "kommunikativ kompetensiya" atamasini yaratgan. [3, 14 b.] U muloqot faqat grammatik bilim (til qoidalarini bilish) bilan chegaralanmaydi. Shuningdek, u turli ijtimoiy mavzudagi matnlarda tildan to'g'ri foydalanishdir. Uning fikricha, kommunikativ kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tildan funksional foydalanishni bilish;
 - ijtimoiy muhit va auditoriyani tushunish;
 - muloqot bilan bog'liq madaniy merrorlardan xabardor bo'lish.
- Hymesning ishiga asoslanib, Canale va Swain kompetensiyani batafsilroq ishlab chiqdi:

- **grammatik kompetensiya:** grammatik va lugʻatni bilish;
- **ijtimoiy lingvistik kompetensiya:** tildan foydalanish va ijtimoiy mavzudagi matnlarga qarab qanday oʻzagarishini tushunish;
- **diskurs kompetensiya:** fikrlarni izchil ifodalash va muloqotni samarali tashkil etish;
- **strategik kompetensiya:** qiyinchiliklarni yengish va maqsadlaringizga erishish uchun turli xil aloqa strategiyalardan foydalanish qobiliyati. [2, 27 b.]

Olimlarning tadqiqiga koʻra, ona tili darslarida nutq oʻstiruvchi nutqiy kompetensiyalar mavjud:

Grammatik kompetensiya: lugʻat boyligi, toʻgʻri talaffuz qilish, ohang, intonatsiya, urgʻu.

Diskurs(nutq) kompetensiya: imlo savodxonligi, uygʻunlik, mantiqiy-mazmuniy bogʻlanish.

Ijtimoiy-lingvistik kompetensiya: nutqning dalillanishi, ishonchligi, fikrning aniqligi, tinglovchilarni jalb qilish, turli vaziyatlarda turli muloqot uslubini tanlash, xushmuomalalik, yumorga boylik, noverbal vositalardan foydalanish.

Strategik kompetensiya: topqirlik, oʻziga boʻlgan ishonchni oshirish, moslashuvchanlik.

Tanqidiy fikrlash: tahlil eta olish, dallilarni baholay olish, fikrlarni ishonchli tarzda yetkazish.

Faol tinglash: axborotni tushunish va unga mos javob qaytarish.

Ona tili fanini oʻqitishning asosiy vazifasi sifatida "oʻquvchi shaxsini fikrlashga, oʻzgalar fikrini anglashga, oʻz fikrini ogʻzaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish, oʻquvchida grammatikaga oid oʻzlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, soʻzning tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish, ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda toʻgʻri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat" ekanligi belgilangan. Kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim – oʻquvchilarning egallagan bilim, koʻnikma va malakalarini oʻz shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qoʻllay olish imkoniyatidir.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan taʼlim oʻquvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega boʻlish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan oʻz faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sogʻlom raqobat hamda umummadaniy koʻnikmalarini shakllantirdi. 6-sinf oʻquvchilarida fanga oid egallagan nazariy bilim, amaliy koʻnikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qoʻllay olish muhim omil sanaladi.

Taʼlim jarayonida oʻquvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga oʻrgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va oʻqish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. Oʻquvchilar daftarga yozishlari, chizishlari, boʻsh oʻrinlarni toʻldirishlari, oʻqib va tinglab tushunish, matn tuzish bilan bogʻliq topshiriqlarni bajarishlari hamda rasmlarni boʻyashlari mumkin. Amaldagi boshlangʻich sinf ona tili darsliklari asosida oʻquvchilardagi quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish koʻzda tutiladi. Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish) orqali 6-sinf oʻquvchisi:

- oʻqituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarni tinglab, borliqni idrok etib, mustaqil hayotiy mushohada eta oladi, mustqil fikrlarini erkin ifoda eta oladi;

- rasmlar asosida nutq jarayonida oʻzlashtirgan yangi soʻzlar, iboralar, maʼnodosh soʻzlarni ogʻzaki va yozma nutqlarida ham qoʻllab, fikrini erkin ifoda eta oladi [1, 8, 18 b.];

- voqelikka nisbatan oz munosabatini, fikr-mulohazalarini bildiradi, mustaqil matn tuza oladi, unga xat boshi, epigraf tanlab, xulosa bera oladi.

- matndagi soʻzlarni tahrirlay oladi, grammatik jihatdan kategoriyalarni oʻz oʻrnida qoʻllay

oladi.

Demak, ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me'yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish; tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ona tili ta'limining mazmuni o'zgarmoqda. Biz yillar davomida ona tili ta'limi orqali o'quvchilarga grammatik qonun-qoidalarni, nazariy bilimlarni o'rgatib keldik. Endilikda grammatika bilan bir qatorda o'quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya'ni tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ko'proq e'tibor berishimiz lozim. Xalqaro rivojlangan davlatlarda o'qitish metodikasi keyingi yillarda bir qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Buning natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida muayyan rivojlanishlar, islohotlar sodir bo'lmoqda. Maktab ta'limida til muloqot vositasi sifatida barcha yo'nalishlarning taraqqiyotiga ta'sir qiladi, shuning uchun ham uni lingvopedagogik o'qitish masalasi doimo dolzarb hisoblanadi.

Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda pragmatik kompetensiya, ya'ni nutqning emotsional-hissiy jihati ta'sir doirasining kengligi farqlanadi. Nutqiy kompetensiyalarning asosini o'qish, tinglab tushunish, so'zlash, yozish kabi faoliyatlar mahsuli sifatida ifoda qilinishi tushuniladi. Nutqiy kompetensiyalarning tarkibiy qismini tashkil qiluvchi elementlarning o'ziga xos kaloritlari bu uning amaliy jihatdan yo'naltirilganligidir. Bular tizim asosida, mutanosib tarzda rivojlantirilishi maqsadga muvofiqdir.

6-sinf ona tili darsligi pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llashni inobatga olib quyidagi talablarni bajaradi:

1. Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

2. Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan jidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

3. Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish.

4. Kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish;

5. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish;

6. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;

7. Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan) da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik;

8. Fonetik kompetensiya – tovush va ajratishdagi tafovut, matnni ravon, ifodali o'qish va tahlil etish usuli. Insert interfaol metod asosida, nutqiy sifatlarni o'zlashtirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari. (innovatsiya va novatsiya); yod olish qobiliyatini rivojlantirishning metodik usullari. (Innovator, novator).

Leksikalogik kompetensiya – lug'at bilan ishlash, usullari, aniq maqsad, intilish asosida nutqiy jarayonni takomillashtirish, nutqiy jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshiriladi, izchil ravishda yangilanib borayotgan ta'limda bilimlar metod hamda vositalardan xabardor bo'lish demakdir.

Nutqiy va lingvistik kompetensiya lingvopedagogika tushunchasi ostida tegishli tildagi nutqni amaliy jihatdan erkin egallash, dialog, shuningdek, monolog shaklidagi nutq jarayonida to'g'ri, tez, jonli gapira olish, tinglanayotgan nutqni, har qanday funksional uslubdagi nutq namunalarini tushuna olish malakalari tasavvur etiladi. Bunday nutqiy ko'nikma va malakalar ona tili darsliklarida berilgan mashq va topshiriqlar orqali takomillashtiriladi. Shunisi aniqki, nutqiy faoliyatni to'liq amalda ifodalash uchun turli lisoniy birliklar, jumladan, leksik, morfologik vositalarni hamda grammatik shakllarni nutq vaziyatiga mos ravishda tanlab olishni taqozo etadi. Bu jarayon, birinchi o'rinda, nutq uslublari turlariga xos lug'aviy birliklar va ularni o'zaro mazmun va grammatik jihatdan bog'lovchi munosabat shakllarni tanlash va gapda o'rinli qo'llashdan boshlanadi.

Nutqiy birliklarni bosqichma-bosqich so'zlarni tanlash va ulardan so'z birikmasi hosil qilib, gap tuzish, matn sarlavhasiga oid tayanch so'zlarni tanlash, so'zlar yordamida hosil qilingan gaplardan bog'lanishli nutq yaratish kabi nutqiy faoliyatni xususiyatlari jamlangan holda tavsiflanadi. Nutq faoliyatining tarkibini tashkil qiluvchi turlari: gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish ko'nikma va malakalar bo'lib, ular doimo biri ikkinchisini taqozo etadigan to'ldirib boruvchi lisoniy birliklar sanaladi. 6-sinf ona tili ta'limida nutqiy faoliyatida o'quvchilarda egallanishi lozim bo'lgan nutqiy kompetensiyaning tarkibini tashkil qiluvchi to'rtta komponentini yuqori darajada rivojlantirish lug'at turlari bilan ishlash zarur. Lug'at ustida ishlash hamda lug'aviy birliklar uslubiyatini o'quvchilarda to'g'ri qo'llash malaka talablari badiiy asarni o'qishda, ilmiy ma'lumotni o'rganishda, matnlarni tuzish va yozishda aniqlanishi va nazoratga olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova K.M. va boshqalar. Ona tili (6-sinf uchun darslik) –Respublika ta'lim markazi. 2022-224 b.
2. Azimova I. Ona tili bo'yicha savodxonlik kurslarida kommunikativ yondashuvni qo'llash. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika IV an'anaviy-ilmiy Anjuman materiallari.202.13-135-betlar
3. Clevenger T. Can one not communicate A conflict of models. Communication studies. 1991.- P350-357.
4. Nasirov, A. (2020). Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romanida badiiy obraz yaratish. *Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRK LAD)*, 4(2), 200-205.
5. Yoqubov, I. (2025). O'zbek va turk tillaridagi gap bo'laklarining qiyosiy tavsifi. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(2), 9-14.
6. Yoqubov, I. (2024). Fanlararo integratsiya (Odil Yoqubov asarlari misolida). *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(2), 112-117.
7. Utebekov, S. B., & Yokubov, I. H. (2024). Классикалық осман тіліне дейінгі түрік әдеби тілінің даму, қалыптасу кезеңдері және тілдік ерекшеліктері. *Journal of Oriental Studies*, 108(1), 4-15.
8. Akar, A., & Yoqubov, I. H. (2024). Qutadg' u bilig" asaridagi kasb-hunarga oid terminlar haqida. *Academic research in educational sciences*, (1), 43-49.
9. Yoqubov, I. (2023). Meşreb divânında kullanılan hâl eklerinin özellikleri. *Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRK LAD)*, 7(2), 493-500.
10. Yılmaz, T. Özbekçe öğreniyoruz (o'zbekcha o'rganamiz).
11. Азизовна, Ю.С. Развитие познавательных навыков учащихся в процессе языкового образования. *JournalNX*, 514-516.
12. Азизовна, Ю.С. Формирование чувства уважения у студентов. *Журнал NX*, 1026-1028.
13. Азизовна, Ю.С. (2023). Миллий дастур талаблари асосида узбек тилини о'китишнинг самарадорлиги. *фан, таълим ва амалиёт интеграцияси*, 661-664. Получено с <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1256>